

### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




#### 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi miqdori (dastlabki ma‘lumot)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 589,0 ming so‘mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,2 % ga o‘sdi.

#### Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi (2025- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

##### SANOAT SOHASIDA



##### QURILISH SOHASIDA



## SAVDO SOHASIDA



7 974,0  
ming so'm

Iyul

*Avgust*

12 901,4  
ming so'm

8 561,4  
ming so'm

*Sentabr*

*Yanvar-sentabr*

8 932,5  
ming so'm

## TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



8 260,6  
ming so'm

Iyul

*Avgust*

9 352,4  
ming so'm

6 479,6  
ming so'm

*Sentabr*

*Yanvar-sentabr*

7 438,4  
ming so'm

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



7 005,4  
ming so'm

Iyul

*Avgust*

7 344,0  
ming so'm

6 742,3  
ming so'm

*Sentabr*

*Yanvar-sentabr*

8 771,0  
ming so'm

## MOLIYAVIY VA SUG'URTA FAOLIYATI SOHASIDA



13 554,1  
ming so'm

Iyul

*Avgust*

14 924,3  
ming so'm


13 221,6  
ming so'm

*Sentabr*

*Yanvar-sentabr*

12 256,9  
ming so'm


## TA'LIM SOHASIDA



**Yanvar-sentabr**

3 726,1  
ming so'm


## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



**Yanvar-sentabr**

3 525,2  
ming so'm


## SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLISH SOHASIDA



**Yanvar-sentabr**

4 247,3  
ming so'm


## BOSHQA FAOLIYAT TURLARI SOHASIDA



**Yanvar-sentabr**

5 859,2  
ming so'm

**Sohalar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi miqdori va o‘shish sur‘atlari**  
(2025 yil yanvar-sentabr)



O‘rtacha oylik ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari savdo sohasida (140,1 %), san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish faoliyati (126,7 %), sanoat sohasida (123,6 %), ta‘lim sohasida (117,3 %) va Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida (114,2 %) kuzatildi.

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlardagi  
xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqi**  
(2025- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln so'm:</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
<b>Jizzax viloyati bo'yicha – jami</b>	<b>114101</b>	<b>4 654 455,6</b>	<b>4 589,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	14 385	755 924,3	5 838,8
Qurilish	1 521	73 271,7	5 352,6
Savdo	2 011	161 669,9	8 932,5
Tashish va saqlash	739	49 473,1	7 438,4
Yashash va ovqatlanish	140	4 386,4	3 481,3
Axborot va aloqa	371	29 286,5	8 771,0
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 845	203 525,7	12 256,9
Ta'lim	53 210	17 843 887,9	3 726,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	23 621	749 426,7	3 525,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	981	37 499,2	4 247,3
Boshqa faoliyat turlari	15 277	805 603,1	5 859,2

Faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi moliya va sug'urta faoliyati sohasida 12 256,9 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,7 martaga yuqori), savdo faoliyati 8 932,5 ming so'mni (194,7 %) hamda axborot va aloqa sohasida 8 771,0 ming so'mni (191,1 %) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqoriligi kuzatildi.



**Sanoat sohasi** bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'allaorol (154,8 %) va Zafarobod (134,9) tumanida kuzatildi.

Shu bilan birga, viloyatning ayrim tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ko'rsatkichi Forish (31,7 %) va Do'stlik (43,5 %) tumanlarida kuzatildi.



**Qurilish sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichlari Zomin tumani (140,3 %) va Jizzax shahri (115,3 %) da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ayrim tumanlarining qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi G'allaorol (65,5 %) va Zafarobod tumanlari (70,5 %) da kuzatildi.



**Savdo sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahrida (105,3 %) viloyat darajasidan yuqori bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Baxmal (22,9 %) va Sh,Rashidov tumanida (43,0%) kuzatildi.



**Ta'lim** sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahrida (130,0 %), Paxtakor (105,8) va Zarbdor (101,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Zafarobod (72,7 %), Yangiobod (79,4 %) hamda Forish (82,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



### **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**

sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Zomin (118,5 %), Arnasoy (117,5 %), Jizzax shahri (109,0 %), Paxtakor (101,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ayrim tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zarbdor (80,0 %), G'allaorol (80,6 %) tumanlarida kuzatildi.



**Bank, sug'urta va vositachilik** faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Yangiobod tumanida (115,9 %) kuzatildi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Jizzax shahrida (99,8 %) kuzatildi.


## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2025- yil yanvar-sentabr, ming so'mda)

<i>O'rtacha oylik ish</i>	<i>2024- yil Yanvar-sentabr</i>	<i>2025- yil Yanvar-sentabr</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Jizzax viloyatida</b>	<b>3 849,5</b>	<b>4 589,0</b>	<b>119,2</b>
Jizzax shahri	4 916,0	6 066,0	123,4
tumanlar:			
Arnasoy	3 252,7	3 923,7	120,6
Baxmal	3 190,1	3 577,0	112,1
G'allaorol	3 771,8	4 559,4	120,9
Sharof Rashidov	3 123,0	3 754,8	120,2
Do'stlik	2 871,0	3 435,7	119,7
Zomin	3 208,9	3 955,9	123,3
Zarbdor	3 407,1	3 714,5	109,0
Zafarobod	4 323,4	4 075,3	94,3
Mirzacho'l	2 937,6	3 325,4	113,2
Paxtakor	3 411,6	4 099,8	120,2
Forish	2 717,2	3 093,1	113,8
Yangiobod	2 903,2	3 381,2	116,5

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 6 066,0 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,4 %), Zomin tumanida 3 955,9 ming so'm (123,3 %), G'allaorol tumanida 4 559,4 ming so'mni (120,9 %), Arnasoy tumanida 3 923,7 ming so'mni (120,6 %), va Paxtakor tumanida 4 099,8 ming so'm (120,2%) ni tashkil etib, viloyatda yuqori o'sish sur'atlariga erishdi.

## Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi

(2025- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi tahlil qilinganida, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 132,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, qolgan barcha tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichiga nisbatan kam miqdorda ekanligi kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (2025 yil avgust oyidan 1 271,0 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**JIZZAX VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2025- yil YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas'ul:  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*

**tel.: 0(372) 221-53-51**

**Buyurtma raqami №            28.10.2025- yil            Tiraj 15 nusxa**

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Jizzax shahri, To'qimachilar ko'chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)  
elektron pochta manzili: [info@jizzaxstat.uz](mailto:info@jizzaxstat.uz)  
elektron himoyalangan pochta manzili: [jiz.stat@exat.uz](mailto:jiz.stat@exat.uz)